YILQILARNI PARVARISH QILISH MASALALARI VA ULARDAN QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQARISHIDA FOYDALANISH

Sariyeva A.O.
Toshkent Gumanitar Fanlar Universiteti stajyor o'qituvchisi
E-mail: ovezguls@gmail.com

Qabul qilindi: 01.11.2025
Ko'rib chiqildi: 01.11.2025
Tasdiqlandi: 02.11.2025
Kalit so'zlar:
yilqichilik, otlar, biyalar, qimiz, qazi, karta, ateresklorоz, kalsiy, sut kislotasi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada yilqilarni parvarish qilish masalalari haqida ma'lumot keltirilgan. Yilqilarni oziqlantirish, parvarishlash texnologiyalari, yilqilarning qishloq va xalq xo'jaligidagi ahamiayati, mahsuldorligi to'g'risida so'z yuritilgan.

Keywords:
horse breeding, horses, bees, kimiz, qazi, karta, atherosclerosis, calcium, lactic acid.

Abstract. This article provides information on the issues of horse care. It discusses horse feeding, care technologies, the importance of horses in agriculture and the national economy, and their productivity.

Kirish. Yilqilarning ovqat hazm qilish sistemalari anatomik tuzilishi va fiziologik vazifalari bo'yicha boshqa qishloq xo'jalik, hayvonlaridan bir qancha o'zgachaligi bilan farq qiladi. Yilqilarning oshqazonining sig'imliligi qoramollardan 10 marta oz. Ichaklarining ham uzunligi 4,5 marta kalta bo'lib keladi. Shuning uchun yilqilar kavsh qaytaruvchi hayvonlardan bir muncha kam oziqlanadi. Ular buyon arpali qoramollardan 4-5 marta oz oziqlanadi. Shuning uchun ham qo'lda boqiladigan yilqilar juda e'tiborni talab etadi. Agar ularning parvarishida oziqlantirish rejimi buzilsa, unda ular tez ozadi, tez mehnatga yaramay qoladi. Yilqilar qoramollarga qaraganda tez-tezdan oziqlantirish kerak . Ularni birdan to'ydirib oziqlantirish zararli bo'ladi.

Yilqilar jo'nishqa, bedalarni boshqa otlarga qaraganda sevib iste'mol qiladi. Yilqilarga jo'nishqalarning gullagan davrida o'rilib, beda tayyorlangani (pres holida maydalangani) ma'qul. Sababi, jo'nishqalarning gullash davrida o'rilganlari juda foydali, to'yimli, yuqumli bo'ladi.

Bo'g'oz biyalardan yaxshi normal rivojlangan nasl olish uchun ham ulardan ko'p sut olish uchun bo'g'oz biyalar qisir biyalardan yaxshi kutimni, shirali yem-xashakni ko'proq talab etadi. Bo'g'oz biyalar har bir 100 kg vazniga 1,6-1,7 kg oziq birligi to'g'ri keladigandek miqdorda oziqlantirilishi kerak. Bo'g'ozligi uch oy bo'lgandan boshlab-oq bo'g'oz biyalarning qabul qiladigan har bir oziq birligiga
105-110 g sig'imli protein, 6-7 g kalsiy, 4-5 g fosfor va 23 mg vitaminlar bo'lishi shart.

Biyalar kulinlagandan keyin yuqumli oziqlar bilan oziqlantiriladi. Tiriklay vazni 500 kg keladigan biyalarga kuniga 50 kg miqdorida yem-xashak talab etiladi. Hisob-kitoblarga qaraganda bu miqdordagi ko‘k o‘t 7-8 kg oziq birligiga teng bo‘lib undan 700 - 900 g oqsil paydo bo‘lib u yilqi tanasiga hazm bo‘ladi [1].

Keyingi yillari yilqilarga yem uchun makkajo‘xori doni foydalanila boshladi. Makkajo‘xori doni arpa donidan ham kuchli va tez hazm bo‘luvchi hisoblanadi.

Yilqilar uchun bug‘doy kapagi ham yengil hazm bo‘luvchi yem bo‘lib hisoblanadi. Yilqilarga yem-xashak sifatida sabzi, lavlagi, sholg‘om, pishirilgan kartoshkalarni va boshqa ildizmevali o‘simliklarni ham foydalanadi. Bulardan boshqa yilqilarni oziqlantirishda mineral birikmalardan ham, ayniqsa osh tuzi ham ko‘plab foydalaniladi. Osh tuzi maydalanib yemlarining tarkibiga aralashtiriladi yoki pri muzining tuzlari bo‘lsa paqirlariga solib qo‘yiladi. Tuzlardan foydalanish normasi yilqilarning vazniga, yoshiga qarab ko‘paytirilib boriladi. Voyaga yetgan yosh yilqilarga sutkasiga 30-50 g yosh avlodlariga 15-30 g to‘g‘ri keladigan qilib beriladi.

Onasidan ajratilgan qulinlarga beda, qamish, maydalangan lavlagi, bug‘doy kapagi va hokazo boshqa yengil hazm bo‘luvchi yem-xashaklar berilishi kerak. Ular bog‘lab boqilganda kuniga 4-5 kg qamish, 2-3 kg suli, 0,5 kg kapak, 1,5-2 kg somon berilib boqilishi kerak. Yosh toychoqlar sutkasiga 3-4 marta oziqlantiriladi. Bir sutkalik ozuqa moddalarining 55-60% ini em bilan to‘ldirish kerak.

Bo‘g‘oz va emizikli biyalarni boqish uchun dastlab ularning tirik vazni, yoshi, oriq-semizligi va fiziologik holati hisobga olinadi.

Bunda ularning 100 kg tirik vazni hisobiga o‘rtacha 2-3 kg beda pichani, 0-0,8 kg omuxta em, 40% suli, 35% arpa, 25% makkajo‘xori, 0,1-0,2 kg kunjara, 1-1,5 kg sabzi yoki xashaki lavlagi, 0,5-1 kg silos berish foydali hisoblanadi [2,3].

Yilqilarning qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida foydalanilishi. Yilqilar yuqorida ta’kidlanganlardan boshqa ishlab chiqarishda ham keng turda foydalaniladi. Ularning ko‘lamli terisidan teri ishlash sanoatida, qimmatbaho poyavzallar tayyorlashda kengdan foydalanish bilan ularning dum, yollaridan sifatli chyotkalar va hokazo boshqa buyumlar ham tayyorlashda kengdan foydalaniladi.

Yilqilarning sutidan foydalanish. Yilqilarning sutini achitish yo‘llari bilan ayrim odamlar qimiz tayyorlab chanqog‘ini qondirish va ko‘nglini ko‘tarish maqsadida ichimlik uchun foydalangan. Qimiz bilan ota-bobolarimiz ayrim uzoqqa cho‘ziladigan o‘pka kasalliklari bilan kasalangan odamlarni davolash maqsadida ham foydalanganligi bizga arxiv materiallaridan ham ma’lum.

Tadqiqotlarga qaraganda yilqilarning suti sigir va boshqa bir qancha hayvonlarning sutidan anchagina foydali ekanini dalillaydi.

Shuning bilan birga yilqi suti o‘zining kimyoviy xususiyati va tarkibi tomonidan odam sutiga yaqin ekanligini dalillaydi. Hisoblashlarga qaraganda bir biya bir yillik sog‘in davrida 1600 dan 2500 kg gacha sut beradi.

Biyalarning suti ko‘pincha qimiz holida odamlarning ichishi uchun foydalaniladi. Qimiz odamlarning sog‘ligi uchun eng bir foydali ichimlik bo‘lib, u bir qancha odamlarda uchiraydigan kasalliklarning oldini olishda va emlashda ahamiyati zo‘r. Tahlillarga qaraganda qimizning tarkibida odam organizmida uchiraydigan yuqumli mikroblarning sonini kamaytiradigan xususiyatlarining bor ekanligi belgili. 1 litr qimizning tarkibida 70-150 mg kalsiyning, sut kislotasining, foydali vitaminlardan hisoblanadigan A, B1, B2, B6, B12, C, PP, E kabi vitaminlarining bor ekanligi belgili.

Yilqilarni boqish yaxshi yo‘lga qo‘yilgan xo‘jaliklarda 1 sentner qimizning o‘ziga tushar bahosi 15-25 ming so‘mdan oshmasligi mumkin. Sababi yilqilar yilning ko‘pchilik vaqtlarida o‘z oyog‘i bilan yurib ozuqa topib yeyishadi. Yilqilar uchun qoramollarga qaraganda ozuqalar kam sarflanadi.

Yilqilarning go‘shtidan foydalanish. Odatda yilqilar sifatli, sinimli, ozuqalik xususiyati bor go‘shti uchun yetishtiriladi. Yilqi go‘shti qoramollarning, qo‘ylarning go‘shti bilan solishtirganda bir muncha yuqori baholanadi. Sababi yilqi go‘shti sinimli, yuqumli va kuchli. Odam organizmiga yengil singadi va yuqorida aytganlarimizday bularning go‘shtidan ham, go‘sht moylarining ham ozuqalik xususiyati bor. Yilqi go‘shti yengil sinimli bo‘lishi bilan qatorda ularning moylari odam organizmiga juda foydali. Yilqi moylarining tarkibida to‘yinmagan moy kislotalari ko‘p bo‘lib odam qon tomirlarida xolesterin deb ataladigan birikmalarning, odam qon tamirlarining ichki devorlarining qalinlashishiga qon tomirlarning tortilib qolishidan saqlaydi. Shuning-dek odamlarda yurak qon tomir kasalliklaridan hisoblanadigan ateroskleroz kasalliklaridan davolanishga bo‘ladi va u kasalliklarga shifosi tegadi.

Yilqi go‘shtiga va ulardan olinadigan mahsulotlarga butun dunyo bozorida talabanlarning soni oshib bormoqta. Masalan Fransiya, Italiya, Gollandiya va Belgiya kabi xalqlar har yili dunyo bo‘ylab bazordan go‘shti uchun 150 minga yaqin ot sotib oladigani ma’lum [3].

Bunday faktlarni quyidagi pastdagi raqamlardan ham ko‘rishga bo‘ladi. So‘nggi yillari dunyo bazorda qishloq xo‘jaligining mollari sigir, cho‘chqa, qo‘y go‘shtlarining bahosi 12-14% qimmatlagan bo‘lsa, yilqi go‘shti esa 28-29% qimmatlagani ma’lum. Janubiy Amerikada esa qo‘y go‘shtining bahosi 2,4% arzonlagan bo‘lib, yilqi go‘shtining 15% qimmatlagani ma’lum.

Yilqi go‘shtining boshqa qishloq xo‘jalik mollari bilan solishtirganda ko‘p sonda har xil yarim pishirilgan, tuzlangan, konservalangan taomlar tayyorlashga bo‘ladi. Ulardan: qazi, karta, jal, jaya, jumik tayyorlanadi. Bu tayyorlangan taomning turlari odamlar orasida keng iste’mol qilinadi va ularga bo‘lgan talab kuchli. Bunday yilqi go‘shtlaridan tayyorlanadigan taomlarning turlari go‘sht

kombinatlarida amalga oshiriladi. Barchamizga belgili yilqi go‘shtining aralashmalaridan o‘ndan ortiq sifatli kolbasalarning turlari tayyorlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ergashev A.A. Ot zotlarining zootexnikaviy klassifikatsiyasi.// Multidisciplinary Scientific Journal August, 2023. 32-38 b.

2. Xolmirzayev.M. “Yilqichilik va tuyachilik”. O‘quv qo‘llanma.“Dizayn-Press” nashriyoti, Toshkent, 2013yil

3. Жоллыбеков Р. «Жылқышылық пайдалы тараў», «Совет Қарақалпақстаны» газетаси, 1983 ж, 19 ноябрь, №221.